



Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-may holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan
o'tgan

29826
ta.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 3828 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2177 taga ko'pdir.

Faoliyat
ko'rsatayotgan

28489
ta.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6191 ta (27,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 28489 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil
etilganlar


3828
ta.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-may holatiga)



2019-yilning 1-may holatiga 29826 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,1 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,0 % savdo, 18,9 % sanoat, 8,5 % qurilish, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (7165 ta) savdo, (5623 ta) sanoat, (2526 ta) qurilish, (2226 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (2129 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (929 ta) tashish va saqlash, (627 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (453 ta) axborot va aloqa, hamda (8148 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **28489** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6191 ta (27,8 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat



Qurilish




Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi




Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Samarqand shahri (8901 ta), Urgut (2505 ta), Pastdarg'om (2261 ta), Samarqand (2008 ta) va Payariq (1548 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (623 ta), Paxtachi (714 ta) hamda Nurobod (776 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida 3828 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2177 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish sur'ati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1374 ta), sanoat (924 ta), qurilish (306 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (253 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (60 ta), axborot va aloqa (61 ta) hamda tashish va saqlash (77 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon
va baliq xo'jaligi



253

Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



418

Sanoat



924

Axborot va
aloqa



61

Qurilish



306

Tashish va
saqlash



77

Savdo



1374

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish



60


Boshqa
turlar



355


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (1186 ta), Samarqand (391 ta), Ishtixon (275 ta) va Pastdarg'om (284 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (79 ta), Narpay (84 ta) tumanlarida hamda Kattaqo'rg'on shahrida (86 ta) korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajada.

Yangi tashkil etilgan
korxonalar va
tashkilotlar yillar
kesimida



Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 23052 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona



Unitar korxona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



438 ta

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,2 % o'sgan.


Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 438 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 121 taga yoki 38,2 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 318 tasi qo'shma, 120 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 222 ta (jamidagi ulushi 50,7 %), Urgut tumanida 41 ta (9,4 %) va Jomboy tumanida 35 tani (8,0 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shrabot 4 ta (0,9 %), Narpay 5 ta (1,1 %), Paxtachi 5 ta (1,1 %), Nurobod tumanlarida 7 ta (1,6 %) hamda Kattaqo'rg'on shahrida 8 tani (1,8 %) tashkil etgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 48 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga ko'paygan.



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 7 ta, Turkiya Respublikasi – 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 9 ta, Qozog'iston Respublikasi – 2 ta va Koreya Respublikasi – 4 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 25 ta sanoat, 5 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5 ta savdo, 3 ta qurilish va 3 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)





2019-yil 1-may holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 22908 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 33,1 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-aprel oylarida 3650 tadan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2118 taga ko'proqdir.




•Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eng katta ulushi

•Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eng kichik ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22908 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 6785 ta (29,6 %) – savdo, 5342 ta (23,3 %) - sanoat, 2383 ta (10,4 %) - qurilish, 2018 ta (8,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2031ta (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 867 ta (3,8 %) - tashish va saqlash, 485 ta (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 414 ta (1,8 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2583 tasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

37,6 %



Sanoat

25,3 %



Qurilish

8,4 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

10,9 %



Tashish va saqlash

2,1 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

6,9 %



Axborot va aloqa

1,7 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2 %




Boshqa turlar

5,5 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1371 ta, sanoat 923 ta, qurilish 305 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 251ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 43 ta, axborot va aloqa 61 ta hamda tashish va saqlashda 77 ta tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (1152 ta), Samarqand (379 ta), Ishtixon (265 ta) va Pastdarg'om (273 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (72 ta) va Narpay (79 ta) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida (83 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-may holatiga)




■ Ro'yxatdan o'tgan
■ Faoliyat ko'rsatayotgan
■ Yangi tashkil etilgan




■ Ro'yxatdan o'tgan
■ Faoliyat ko'rsatayotgan
■ Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-may holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qalganda ularning 32,0 % yoki 1094 tasi sanoat, 28,2 % yoki 962 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,8 % yoki 710 tasi savdo, 8,3 % yoki 285 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 33 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 33 tasi qurilish, 0,8 % yoki 28 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,5 % yoki 258 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi .
Tel.:71-230-85-42(43)**